

## MAKTABGACHA, UMUMIY O'RTA VA PROFESSIONAL TA'LIMNING HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'LLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy va  
amaliy fanlar fakulteti musiqa ta'limi 302- guruh talabasi*

***Alimova Diyora Alimjon qizi***

*Ilmiy rahbar: Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedrası professor o'qituvchisi  
Mahliyo To'lanova Murodali qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimining uch asosiy bo'g'ini — maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'limning hozirgi holati, asosiy muammolari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'llari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'limda bolalarning erta rivojlanishiga oid omillar, umumiy o'rta ta'limda sifat, mazmun va metodikadagi kamchiliklar, professional ta'limda esa mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlik masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, har bir ta'lim bo'g'ini bo'yicha samarali takliflar va innovatsion yondashuvlarga asoslangan rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim, muammolar, rivojlanish yo'llari, pedagogika, innovatsiya, kompetensiya, kadrlar tayyorlash, ta'lim sifati.

**Abstract:** This article analyzes the current state, main problems and future development paths of the three main branches of the education system of Uzbekistan - preschool education, general secondary education and vocational education - from a scientific and pedagogical point of view. Factors related to the early development of children in preschool education, shortcomings in quality, content and methodology in general secondary education, and issues of compliance with the needs of the labor market in vocational education are considered. Also, effective proposals for each branch of education and development mechanisms based on innovative approaches are developed.

**Keywords:** Preschool education, general secondary education, vocational education, problems, development paths, pedagogy, innovation, competence, personnel training, quality of education.

### KIRISH

Globalashuv jarayonining tezlashuvi, texnologiyalarning rivojlanishi, mehnat bozori talablari o'zgarib borayotgan bir sharoitda ta'lim tizimini takomillashtirish har bir davlatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. O'zbekiston ham ta'lim sohasida tub

islohotlarni amalga oshirib, maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, umumiy o'rta ta'limda sifatni oshirish, professional ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yo'lida keng ko'lamli ishlarni olib bormoqda. Ta'limning ushbu uch bosqichi uzviy bog'langan bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va o'quvchi shaxsining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Shunga qaramay, mavjud tizimda hal etilishi kerak bo'lgan qator muammolar mavjud: maktabgacha ta'limda pedagog kadrlari yetishmasligi va metodik bazaning takomillashmaganligi, umumiy o'rta ta'limda bilim sifati va zamonaviy dasturlar bilan uyg'unlik masalalari, professional ta'limda esa o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi shular jumlasidandir. Ushbu maqolada ana shu muammolar ilmiy tahlil qilinadi va ularning yechimlari taklif etiladi.

### **ASOSIY QISM**

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning erta yoshdan boshlab intellektual, emotsional, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan eng muhim bosqich bo'lib, bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida ushbu tizimni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish, muassasalar infratuzilmasini yaxshilash, pedagog xodimlar malakasini ko'tarish, zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni ko'paymoqda, oilaviy bog'chalar tashkil etilmoqda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasini qo'llab-quvvatlovchi o'quv-metodik komplekslar ishlab chiqilmoqda. Shunga qaramay, tizimda hal etilishi zarur bo'lgan qator muammolar hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Avvalo, malakali tarbiyachi-pedagoglar yetishmovchiligi, ularning kasbiy mahorati va metodik bilimlaridagi farqlar maktabgacha ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hududlarda pedagoglarning zamonaviy metodikalar – STEAM, montessori, rivojlantiruvchi o'yin texnologiyalari, kommunikativ yondashuv kabi uslublarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli emas. Shu bilan birga, mavjud bog'chalarning moddiy-texnik bazasi bir xil emas: ba'zi tashkilotlarda didaktik materiallar, o'yinchoqlar, rivojlantiruvchi vositalar to'liq ta'minlangan bo'lsa, ba'zilarida bu jarayon sust kechmoqda. Bu esa bolalarning ta'lim-tarbiya sharoitida tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muammolardan yana biri – o'quv dasturlarining mintaqaviy va hududiy jihatdan bir xil darajada yangilanmayotgani, ayrim joylarda an'anaviy, eskirgan metodikalarning saqlanib qolganidir. Ba'zan maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar standartlashtirilgan, namunaviy, bir xil shaklda olib boriladi, bolalarning individual ehtiyojlari va yosh xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmaydi. Aslida esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin asosiy faoliyat bo'lib, ta'lim jarayoni ham o'yin, tajriba, muloqot, qiziqishlar orqali tashkil etilishi zarur. Rivojlanishning psixologik qoidalariga ko'ra, bu yoshdagi bolalar atrof-muhitni

ko'proq sezgi, idrok, harakat orqali o'zlashtiradi, shuning uchun bir xil mazmundagi mashqlar va quruq nazariy tushuntirishlar yetarli samarani bermaydi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar bilan hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi ham dolzarb masalalardan biridir.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu maqolaning metodologiyasi maktabgacha, umumiy o'rta va professional ta'lim tizimlarining hozirgi holatini tizimli tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, unda pedagogik, psixologik va sotsiologik yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot davomida ta'lim jarayonini tashkil etuvchi omillar – ta'lim mazmuni, metodik ta'minot, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, o'quvchilar ehtiyojlari, mehnat bozori talablari, ta'lim infratuzilmasining holati kabi jihatlar tizimli yondashuv asosida ko'rib chiqildi. Shuningdek, mavjud holatni chuqur o'rganish uchun diagnostik tahlil, taqqoslash, kuzatuv, ekspert xulosalarini o'rganish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Maktabgacha ta'lim bo'g'inida bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanish ko'rsatkichlarini baholovchi ilmiy-metodik manbalar asos qilib olindi: umumiy o'rta ta'limda xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS)ning mezonlari orqali sifat indikatorlari tahlil qilindi; professional ta'limda esa kompetensiyalarni shakllantirishga doir zamonaviy yondashuvlar va dual ta'lim tizimining mohiyati asos sifatida olinib fikr va mulohazalar yuritiladi. Tadqiqot metodologiyasining asosiy tamoyillari – ilmiylik, tizimlilik, obyektivlik, taqqoslash, uzviylik va innovatsion yondashuv bo'lib, ular ta'lim tizimini ko'p qirrali tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, o'zbek ta'lim tizimini xalqaro tajribalar bilan solishtirish orqali milliy ta'lim modelini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqildi. Metodologik asos sifatida pedagogika nazariyalari, ta'lim texnologiyalari konsepsiyalari, yosh psixologiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, shuningdek, zamonaviy ta'limni boshqarish modellari xizmat qildi. Natijada tadqiqot ta'limning barcha bo'g'inlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvga asoslanib, aniqlangan muammolarning tag sabablarini ochish hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'llarini belgilash imkonini yaratdi. Ko'p hollarda ota-onalar bolani bog'chaga topshirish orqali uning ta'lim-tarbiya jarayonidan o'zlarini butunlay chetga tortadilar. Aslida esa tarbiyachi va ota-ona hamkorligida olib borilgan ta'lim jarayoni bolaning har tomonlama rivojlanishiga ko'proq yordam beradi. Bunda psixologik maslahatlar, ota-onalar uchun treninglar, qo'shma tadbirlar va kuzatuv asosidagi tahliliy uchrashuvlar katta rol o'ynaydi. Muammolar qatorida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining raqamlashtirish darajasi ham turlicha ekanini ko'rish mumkin. Ba'zi bog'chalarda elektron hujjat yuritish, raqamli darslar, interfaol ta'lim vositalari keng qo'llanilsa, ayrim hududlarda bu jarayon endigina yo'lga qo'yilmoqda. Raqamli ta'limning sekin joriy etilishi bolalarning erta axborot kompetensiyasini shakllantirish

imkoniyatini cheklaydi. Barcha muammolarga qaramay, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun keng istiqbollar mavjud. Eng avvalo, tarbiyachilar malakasini zamonaviy metodikalar asosida uzluksiz oshirib borish, maktabgacha ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, o'yin asosida o'qitish metodlarini keng joriy etish zarur. Bundan tashqari, davlat-xususiy hamkorligi doirasida yangi bog'chalar ochish, nodavlat sektorni qo'llab-quvvatlash, pedagoglar uchun innovatsion trening markazlari tashkil etish, psixologik xizmatlarni kuchaytirish ham tizim rivojida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, har bir bola uchun sifatli, teng imkoniyatli maktabgacha ta'lim sharoitini yaratish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, bolalarning nutq, tafakkur, jismoniy va ijtimoiy-emotsional rivojlanish ko'rsatkichlarini monitoring qilish kabi mexanizmlar joriy qilinishi lozim. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimining rivoji kelajak avlodning umumiy intellektual salohiyati, bilim olishga tayyorgarligi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan strategik ahamiyatga ega yo'nalishdir.

### **NATIJALAR**

Avvalo, kuzatuv va diagnostik tahlillar shuni aniqladiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning rivojlanishiga yo'naltirilgan metodlar qo'llanayotgan bo'lsa-da, ularning qo'llanish sifati hududlar bo'yicha bir xil emas. Ayrim tashkilotlarda o'yin faoliyati va interfaol metodlar samarali qo'llanilgan bo'lib, bolalarning nutq faolligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari sezilarli ravishda yuqori qayd etildi. Biroq boshqa hududlarda mashg'ulotlar ko'proq an'anaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgani sababli bolalarning individual rivojlanish sur'atlarida past ko'rsatkichlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlar malakasida ham sezilarli tafovutlar borligini ko'rsatdi. Malaka oshirish kurslarini muntazam o'tayotgan tarbiyachilar mashg'ulot jarayonida rivojlantiruvchi texnologiyalarni keng qo'llashi, psixologik yondashuvlardan samarali foydalanishi, bolalar bilan muloqotda individual yondashuvni qo'llashi tahlilda aniq ko'rindi. Malaka oshirish imkoniyati cheklangan hududlarda esa metodik yondashuvning yetarlicha yangilanmagani sababli bolalarning rivojlanish monitoringida nutq, ijodkorlik, muloqot ko'nikmalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar past bo'lib chiqdi. Infrotuzilma holatini tahlil qilish natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi ham bir xil emasligini tasdiqladi. Ota-onalar bilan hamkorlik darajasi ham natijalarda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ota-onalar faol jalb etilgan tashkilotlarda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy moslashuvi, nutq rivoji, uy va bog'cha o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaviy uyg'unlik ijobiy ko'rsatkichlar bergan bo'lsa, ota-onalar ishtiroki past bo'lgan muassasalarda bolalarning xulq-atvorida beqarorlik, muloqot ko'nikmalarida sustlik kabi holatlar tez-tez uchradi. Raqamlashtirish bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, elektron platformalar, audio-video resurslardan foydalaniladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning bilimga qiziqishi,

diqqatni jamlash darajasi va eslab qolish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib chiqdi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim vositalari hali joriy etilmagan hududlarda bu ko'rsatkichlar o'rtacha darajada qayd etildi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanib borayotganini ko'rsatsa-da, metodik yondashuvlar bir xilligi, pedagog malakasi, infratuzilma, raqamlashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikdagi farqlar ta'lim sifati ko'rsatkichlarida sezilarli tafovutlar paydo qilayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat maktabgacha ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish uchun tizimli yondashuv va bir xil standartlar asosida boshqaruv qarorlarini takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik malaka, metodik yondashuv, infratuzilma va ota-onalar bilan hamkorlik darajasi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Malakali tarbiyachilar ishlaydigan muassasalarda bolalarning nutq, ijtimoiy va kognitiv rivojlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, malakasi past hududlarda bu ko'rsatkichlar pastroq bo'ldi. Shu bilan birga, raqamlashtirish va zamonaviy o'quv-metodik vositalarning mavjudligi ta'lim jarayonini samarali qiladi. Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida individual yondashuv, o'yin faoliyati va ota-onalar bilan hamkorlikning muhimligi qayd etilgan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda: bog'chalar soni oshgan, pedagoglarning malakasini oshirish dasturlari joriy etilgan va ta'lim jarayoni zamonaviy metodikalar bilan boyitilmoqda. Shu bilan birga, tizimda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud: pedagog malakasidagi tafovutlar, hududlar bo'yicha infratuzilma farqlari, raqamlashtirishning yetarli darajada bo'lmasligi va ota-onalar bilan yetarli darajada hamkorlik qilinmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar samarali bo'ladi: pedagoglarning kasbiy malakasini muntazam oshirish, zamonaviy o'quv-metodik va raqamli vositalarni keng joriy etish, ota-onalarni ta'lim-tarbiyaga faol jalb qilish hamda ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish. Umuman olganda, tizimli yondashuv va standartlarni bir xilda qo'llash maktabgacha ta'limning barcha hududlarda sifatini barqaror oshirishga xizmat qiladi va bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdukarimova, G. (2020). Maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy muammolari va yechimlari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Karimova, N., & Tursunov, S. (2019). Bolalarning rivojlanish xususiyatlari va ta'lim sifati. Toshkent: Fan.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2018). Maktabgacha ta'limni rivojlantirish dasturi 2018–2025. Toshkent.
4. Psixologiya va pedagogika asoslari. (2020). Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
5. UNESCO (2019). Early Childhood Education Global Report. Paris: UNESCO Publishing.